

Glossariy:

Yuvenil davr – urug‘ yoki vegetativ murtakning (masalan, kartoshka tujanagining) o‘sishi va vegetativ massa hosil qilishi davri.

O‘simliklardagi tinim – o‘simlikning barcha hayotiy jarayonlarining to‘xtab, muhitning noqulay sharoitlaridan o‘tish holati.

Sporali o‘simliklar – filogenetik jihatdan heterojen bo‘lib, jinsiy va jinsiz ko‘payish usullari orqali tarqaladigan o‘simliklar, ularning tarqalishi sporalar yordamida amalga oshadi.

Vegetasiya davri – 1. O‘simlikning o‘sish va rivojlanish davri. 2. O‘simlikning urug‘ yoki meva hosil qilish uchun to‘liq rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan davr. 3. Qishloq xo‘jaligida ekin ekilganidan keyin o‘rilguncha o‘tgan davr.

Avtosporalar – ba’zi yashil suvo‘tlarda hujayra ichida oddiy bo‘linish orqali paydo bo‘lgan yosh hujayralar.

Avtosterillik – chetdan changlanadigan o‘simliklarda o‘z changchisi bilan changlanganda ham meva va urug‘ hosil qilmaslik holati.